



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TERRORIZMGA QARSHI KURASHISHDA XALQARO HAMKORLIGI: DAVLATLARARO DASTURLAR VA TASHABBUSLAR

Umarxanova Dildora Sharipxanovna

Tadqiqotchi

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-3492-010X>

E-mail: dildora080@gmail.com

Tel: +99899 122 7777

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20084318>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 04-may 2026 yil

Ma'qullandi: 06-may 2026 yil

Nashr qilindi: 08-may 2026 yil

KEYWORDS

terrorizm, xalqaro hamkorlik,
BMT, davlatlararo dasturlar,
O'zbekiston, xavfsizlik,
mintaqaviy tashkilotlar, SHHT,
MDH.

ABSTRACT

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining terrorizmga qarshi kurashishda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi tizimli tahlil qilingan. Tadqiqotda mamlakatning BMT, SHHT, MDH va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligining huquqiy asoslari, institutsional mexanizmlari va amaliy natijalari ko'rib chiqiladi. Maqola davlatlararo dasturlarni amalga oshirish tajribasini umumlashtirish asosida «Terrorizmga qarshi kurashishda integratsiyalangan xalqaro hamkorlik platformasi» (IICTCP) yaratish bo'yicha innovatsion taklif kiritadi. Muallif mintaqaviy va global xavfsizlikni ta'minlashda ko'p tomonlama hamkorlikning samaradorligini oshirish yo'llarini asoslaydi.

Zamonaviy global xavfsizlik tizimida terrorizm eng xavfli transmilliy tahdidlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning asosiy sabablaridan biri jaholat va murossasizlikdir, shuning uchun insonlar, avvalo yoshlarning dunyoqarashini ma'rifat orqali shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. Bu muammolarning murakkabligi va ko'p qirrali tabiati davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasida keng qamrovli hamkorlikni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin terrorizmga qarshi kurashishda faol xalqaro hamkorlik siyosatini olib bormoqda. Mamlakat o'z mintaqaviy va global xavfsizlik arxitekturasida mas'ul ishtirokchi sifatida nafaqat xalqaro me'yorlarni qabul qilmoqda, balki yangi tashabbuslarni ham ilgari surmoqda. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasining terrorizmga qarshi kurashishda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini kompleks tahlil qilish va yangi hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida mamlakatning terrorizmga qarshi xalqaro hamkorligining huquqiy asoslarini tahlil qilish, BMT, SHHT, MDH va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikning amaliy natijalarini baholash, mavjud mexanizmlardagi kamchiliklarni aniqlash hamda xalqaro hamkorlikni optimallashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish vazifalari belgilangan.

Terrorizmga qarshi xalqaro hamkorlik masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lgan. Akiner (2002) Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizlik hamkorligini tarixiy va siyosiy kontekstda tahlil qilgan bo'lsa, Abrahms (2008) terroristlarning haqiqiy motivatsiyasi va terrorizmga qarshi strategiyalarni ishlab chiqishda

ushbu motivatsiyalarni hisobga olish zarurligini asoslagan. Kakenova (2024) Markaziy Osiyo davlatlarining AQSH bilan hamkorligini tahlil qilar ekan, O'zbekistonning yondashuvi ham faol, ham ehtiyotkor bo'lganligini qayd etadi. Mahalliy tadqiqotchilar, xususan A.K.Zakurlayev O'zbekistonning terrorizmga qarshi milliy qonunchiligini tahlil qilgan. Biroq, mavjud tadqiqotlarda O'zbekistonning terrorizmga qarshi xalqaro hamkorligini kompleks yondashuv asosida o'rganish va yangi institutsional mexanizmlarni taklif qilish yetarli darajada amalga oshirilmagan.

ASOSIY QISM

O'zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida terrorizmga qarshi kurashga yo'naltirilgan ko'plab xalqaro hujjatlarni tasdiqlab, ularda ko'rsatilgan vazifalarni to'liq bajarib bormoqda. Ayni paytda, mamlakatimiz xalqaro maydonda terrorizmga qarshi o'z tashabbuslarini faol ilgari surayotganini ta'kidlash lozim. Xususan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida xalqaro terrorizm va ekstremizmning asosiy sabablaridan biri sifatida jaholat va murossasizlik tashkil etishi, shu bois insonlar, avvalo yoshlarning dunyoqarashini ma'rifat orqali shakllantirish va tarbiyalash eng dolzarb masala ekanligini qayd etgan holda, «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» nomli maxsus rezolyutsiya qabul qilishni taklif etgan edi. Jahon hamjamiyati bu tashabbusni yakdillik bilan qo'llab-quvvatlab, BMT doirasida «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» to'g'risidagi rezolyutsiya qabul qilindi. Mazkur hujjatning muhimligi shundaki, u dunyoda ekstremizm va terrorizm muammolari kuchayib, turli din va e'tiqod egalariga nisbatan bag'rikengsizlik namoyon bo'layotgan bir paytda global xavf-xatarlarga qarshi kurashning eng ta'sirchan quroli sifatida ma'rifat, ilm-ma'rifat va ta'lim masalalariga alohida e'tibor qaratgani bilan g'oyat qimmatlidir.

Terrorizmning transmilliy tahdid sifatidagi ko'p qirrali tabiati davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasida keng qamrovli hamkorlikni talab qiladi (Umarkhanova. 2020). Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida davlatlararo terrorizmga qarshi tashabbuslarni amalga oshirishda muhim ishtirokchi sifatida maydonga chiqdi. Mamlakatimiz bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning turli ixtisoslashgan muassasalari, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Mustakkil Davlatlar Xamdo'stligi, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, Moliyaviy choralarni ishlab chiqish guruhi va uning mintaqaviy organi bo'lgan Yevroosiyo guruhi, shuningdek, Xalqaro jinoiy politsiya tashkiloti kabi xalqaro mintaqaviy tashkilotlar bilan terrorizmga qarshi kurashda faol hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda. Ushbu tashkilotlar bilan axborot almashish va razvedka ma'lumotlarini o'zaro taqdim yetish, terrorizmga qarshi qo'shma mashg'ulotlar va mashqlarda ishtirok etish, milliy qonunchilikni mustahkamlash, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish, ekstremizmning oldini olish, shuningdek, terrorizmdan jabr ko'rganlarga reabilitatsiya va reintegratsiya dasturlarini amalga oshirish kabi muhim hamkorlik sohalarni qamrab olingan.

O'zbekiston Respublikasi BMT va uning asosiy organlari tomonidan terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlarga, ularni qo'llab-quvvatlovchi, moliyalashtiruvchi, ta'minlovchi va yo'naltiruvchi manbalarga qarshi kurash doirasida qabul qilingan 14 xalqaro konvensiya va protokolni ratifikatsiya qildi. Shuningdek, 7 ta mintaqaviy shartnomalar imzolangan. O'zbekistonning milliy qonun hujjatlarini rivojlantirish bo'yicha bir qator ishlar

amalga oshirilgan. Jumladan, o'z hududida ana shu yo'nalishdagi har qanday ko'rinishlarning monand ravishda terrorizm bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurash va ularning oldini olishni ta'minlaydigan huquqiy bazani takomillashtirmoqda. Ushbu xalqaro hujjatlarga rioya qilish orqali O'zbekiston turli terrorchilik harakatlarini jinoiy javobgarlikka tortish, jinoyat sodir etganlarni adolatli jazolash yoki ekstraditsiya qilish, shuningdek, boshqa davlatlar bilan profilaktika, tergov va huquqni muhofaza qilish sohasida hamkorlik qilish bo'yicha majburiy yuridik majburiyatlarni o'z zimmasiga oldi.

Xalqaro hujjatlar orqali belgilangan majburiyatlarni to'liq bajarilishning yaqqol isboti sifatida, O'zbekiston 2006 yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan BMTning Global terrorizmga qarshi kurashish strategiyasini qo'llab-quvvatlagan ilk davlatlardan biri bo'ldi. Bu erta qo'llab-quvvatlash O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurashishda yagona global yondashuv zaruratini e'tirof etishi va milliy sa'y-harakatlarini xalqaro standartlar va eng yaxshi amaliyotlar bilan moslashtirishga tayyorligini ta'kidlaydi. O'zbekistonning ko'p tomonlama hamkorligining muhim jihati uning BMTning Global terrorizmga qarshi kurashish strategiyasini amalga oshirish uchun mintaqaviy strategiya bo'lgan Markaziy Osiyo uchun qo'shma harakatlar rejasida ishtirok etishidir.

Strategiyaning birinchi bosqichida 2010-2011 yillarda Markaziy Osiyoda Strategiyaning amalga oshirish uchun Qo'shma Harakatlar Rejasi tayyorlandi. Qo'shma Harakatlar Rejasi bir yillik maslahat jarayoni asosida tayyorlandi, bu jarayonda Strategiyaning to'rtta ustuvor vazifalari ko'rib chiqildi, imkoniyatlar, kamchiliklar va ehtiyojlar aniqlandi hamda ushbu qo'shma harakatlar rejasini shakllantirish uchun tavsiyalar ishlab chiqildi. Dastlab ushbu strategiyada Markaziy Osiyo davlatlari Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston ishtirok etgan bo'lsa, O'zbekiston esa kuzatuvchi maqomida qatnashishni ma'qulladi. Turkmanistonning Ashxobod shahrida bo'lib o'tgan yuqori darajali uchrashuvda "Markaziy Osiyoda BMTning Global terrorizmga qarshi kurashish strategiyasi -- Qo'shma Harakatlar Rejasi"ni imzolandi. Strategiyaning keyingi bosqichlarida O'zbekiston Respublikasi faol ishtirok etib kelmoqda. Ikkinchi bosqichda 2013-2017 yillarda Strategiyaning amalga oshirishni qo'llab-quvvatlashga bag'ishlandi va bu maqsadda turli seminarlar tashkil etildi. 2017 yil 13 iyunda Turkmanistonning Ashxobod shahrida xalqaro muloqot tashkil etildi. Ushbu muloqot mintaqada terrorizmga qarshi kurashish va zo'ravon ekstremizmning oldini olish bo'yicha strategik yutuqlar va duch kelinayotgan muammolarni xisobga olish, shuningdek, qo'shma loyihaning keyingi bosqichlari uchun ustuvor yo'nalishlarni aniqlash imkonini berdi. Uchrashuv davlatlar mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirishga va'da bergan ikkinchi Ashxobod deklaratsiyasini qabul qilishga olib keldi.

Strategiyada belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini amalga oshirishda O'zbekiston roli juda ahamiyatga ega hisoblanadi. Xususan, 2022 yil 3-4 mart kunlari Toshkent shahrida "BMTning Global aksilterror strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Birgalikdagi harakatlar rejasida Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqaviy hamkorligi" mavzuida xalqaro konferensiya o'tkazildi. Ushbu xalqaro anjuman mintaqa mamlakatlari va jahon hamjamiyati sa'y-harakatlarini terrorizmga qarshi hamjihatlik bilan kurashish uchun birlashish hamda faollashishga da'vat etishga qaratilgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida ta'kidlaganidek, hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo mintaqasida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Biz mintaqa davlatlari o'rtasida yaxshi qo'shniçilik va o'zaro ishonç, do'stlik va hurmat muhitini yaratishga erishdik. Birlashgan

Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan tashabbusga asosan muntazam o'tkazilayotgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari umumiy yutug'imiz bo'ldi. Toshkentda tashkil etilgan xalqaro konferensiya bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilganligi, bu O'zbekistonning Markaziy Osiyoda BMTning terrorizmga qarshi kurashish dasturini ilgari surishda yetakchilik qilayotganini ko'rsatadi. Konferensiya natijasida Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan yangilangan Markaziy Osiyoda Strategiyani amalga oshirish uchun Qo'shma Harakatlar Rejasi va "Toshkent deklaratsiyasi"ning qabul qilinishi bilan yakunlandi, bu esa strategiyaga mintaqaviy sodiqlikning davom etishi va terrorchilik tahdidlarining doimo o'zgarib turuvchi manzarasiga moslashish uchun umumiy xohish mavjudligini namoyish etdi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro terrorizmga qarshi kurash sohasidagi sa'y-harakatlari so'nggi yillarda jiddiy tarzda faollashgan bo'lib, mamlakat BMT doirasidagi maxsus tuzilmalar bilan amaliy hamkorlikni rivojlantirish orqali mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga hissa qo'shdi. Jumladan, BMTning Terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha Idorasi hamda BMTning Markaziy Osiyo uchun Mintaqaviy profilaktiv diplomatiya markazi bilan O'zbekistonning hamkorligi mazkur sohadagi muhim ilg'or tajribalarni o'zlashtirishga xizmat qilmoqda. Bu hamkorlik, ayniqsa, Markaziy Osiyo uchun Terrorizmga qarshi erta ogohlantirish tarmog'idagi ishtirok orqali o'z ifodasini topmoqda. Mazkur tarmoq mintaqada axborot almashinuvini tezkor va tizimli ravishda yo'lga qo'yish orqali terrorizm tahdidlariga nisbatan vaqtida va samarali choralar ko'rish imkonini beradi. Markaziy Osiyo uchun Terrorizmga qarshi erta ogohlantirish tarmog'i 2022 yilda BMTning Terrorizmga qarshi kurashish idorasi va Markaziy Osiyo uchun BMTning Mintaqaviy profilaktiv diplomatiya markazi tomonidan global va mintaqaviy muammolarni Markaziy Osiyo davlatlari vakillari, BMT agentliklari, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, mustaqil ekspertlar bilan birgalikda ishga tushirilgan.

Ogohlantirish tarmog'ining asosiy maqsadi terrorizmga qarshi kurashish bilan bog'liq masalalar bo'yicha axborot almashishda mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish bo'lib, bu davlat muassasalari o'rtasida hamkorlik va muvofiqlashtirishni kuchaytirish, tegishli davlat amaldorlarining salohiyatini oshirish, eng yaxshi amaliyotlar va ilg'or metodologiyalardan foydalanish imkoniyatini yaxshilash, umumiy baholash hisobotlarini ishlab chiqish, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar, mexanizmlar, shuningdek, fuqarolik jamiyati tashkilotlari, akademik doiralar va mustaqil ekspertlar bilan hamkorlikni kuchaytirish yo'nalishlari orqali amalga oshiriladi. O'zbekistonning bunday platformalardagi ishtiroki nafaqat mamlakatning xalqaro nufuzini oshirishi, balki uning xavfsizlik sohasidagi institutsional salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin. Axborot almashish tizimlari, ayniqsa mazkur platformalar, hozirgi global xavfsizlik muammolari sharoitida mustaqil siyosiy yondashuvlarni mintaqaviy strategik manfaatlar bilan uyg'unlashtirish imkonini yaratadi. Shu boisdan, bugungi kunda O'zbekistonning mazkur tuzilmalar bilan hamkorligi nafaqat amaliy nuqtayi nazardan, balki xalqaro huquqiy hamkorlikni kengaytirish borasida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda davlat ichki va tashqi siyosatining mutanosibligini ta'minlash, xavfsizlikni inson huquqlari va erkinliklari bilan uyg'un ravishda mustahkamlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Shuningdek, O'zbekistonning BMT Terrorizmga qarshi kurashish qo'mitasi va uning Ijroiya direksiyasi bilan mustahkam hamkorlikni amalga oshirib kelishi terrorizmga qarshi

kurashish siyosatini shakllantirishda va terrorizmga qarshi kurash bo'yicha milliy amaliyotni xalqaro hamjamiyatga taqdim yetish imkonini yaratmoqda. Ahamiyatli jihati shundaki, Terrorizmga qarshi kurashish qo'mitasi va Ijroiya direksiya bilan hamkorlik BMT Xavfsizlik Kengashining tegishli rezolyutsiyalari, xususan 1373, 1624, 2178-sonli rezolyutsiyalari ijrosini ta'minlashga xizmat qilib keladi. O'zbekistonning terrorizmga qarshi xalqaro standartlarga rioya qilish borasidagi intilishlari mazkur direksiya bilan muntazam muloqot va maslahatlashuvlar orqali o'z aksini topmoqda. Bu hamkorlik mamlakatning xavfsizlik muammolariga nisbatan ilg'or, ta'sirchan va hamkorlikka asoslangan yondashuvini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mamlakatning xavfsizlik salohiyatini mustahkamlash, transmilliy tahdidlarga qarshi institutsional va huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonning BMT doirasidagi terrorizmga qarshi kurashish faoliyati ko'p tomonlama xalqaro mexanizmlarga chuqur integratsiyalashgan holda rivojlanmoqda. Mamlakat BMT Xavfsizlik Kengashi mandatlariga rioya qilish, global rezolyutsiyalarni milliy siyosatga moslashtirish va BMT homiyligidagi mintaqaviy tashabbuslarda yetakchi ishtirokchi sifatida qatnashish orqali o'zining xalqaro huquqiy majburiyatlariga sodiqligini namoyon etdi. Jumladan, Markaziy Osiyo bo'yicha Qo'shma harakatlar reja-dasturi kabi davlatlararo dasturlarni amalga oshirishdagi ishtiroki mintaqaviy darajada global strategiyalarning samarali tatbiq etilishiga yordam beruvchi ilg'or mexanizm sifatida e'tirof etildi. Bu jarayon, ayni paytda, O'zbekistonning milliy salohiyatini mustahkamlashda BMTning maxsus organlari va tuzilmalaridan texnik, huquqiy va institutsional yordamlarni jalb etish imkonini ham yaratdi.

Shu bilan birga, qayd etish lozimki, ushbu hamkorlik nafaqat huquqiy va institutsional salohiyatni oshirishda, balki inson huquqlari kabi fundamental qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda xavfsizlikni ta'minlashda ham jiddiy sinovlarni taqozo etadi. Ayniqsa, BMTning Global terrorizmga qarshi strategiyasidagi inson huquqlari ustuni doirasida belgilangan majburiyatlarning amalga qanday darajada ijro etilayotgani masalasi bahsli va dolzarbligicha qolmoqda. Umuman olganda, O'zbekistonning BMT bilan hamkorligi terrorizmga qarshi kurash sohasidagi tashqi siyosatida markaziy ustunga aylanmoqda. Ushbu munosabatlar xalqaro normalarni qabul qilish, milliy siyosatni global maqsadlar bilan uyg'unlashtirish va institutsional salohiyatni oshirishni bir-biriga bog'liq holda amalga oshirishni ta'minlamoqda. Bu esa O'zbekistonning xalqaro miqyosda mas'uliyatli va ta'sirli hamkor sifatida pozitsiyasini yanada mustahkamlaydi.

O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotidan tashqari, qator mintaqaviy tashkilotlar, xususan, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti va Mustakkil Davlatlar Xamdo'stligi bilan davlatlararo terrorizmga qarshi kurashish dasturlari va tashabbuslarini amalga oshirishda keng ko'lamli hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda. Ushbu tashkilotlar orqali O'zbekiston mintaqa xususiyatiga ega huquqiy asoslar, axborot almashish mexanizmlari va terrorizm, ekstremizm hamda ular bilan bog'liq transmilliy tahdidlarni yo'q qilishga qaratilgan qo'shma amaliyotlarda ishtirok etadi. Akiner (2002) O'zbekiston Respublikasining bu mintaqaviy tashkilotlar bilan terrorizmga qarshi kurash borasidagi hamkorligini Shanxay Hamkorlik Tashkiloti va Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi doirasida qabul qilingan ko'p tomonlama shartnomalar va protokollar kabi xalqaro hujjatlarga asoslanadi va Markaziy Osiyoning geosiyosiy konteksti, ya'ni Rossiya va Xitoy kabi yirik davlatlar orasida joylashganligi va qo'shni davlatlar bilan umumiy xavfsizlik muammolariga duch kelishi bilan belgilanadi deb ta'kidlaydi. Kakenova (2024) esa O'zbekistonning ushbu tashkilotlarga nisbatan yondashuvi ham faol, ham ehtiyotkor bo'ldi,

ya'ni u jamoaviy xavfsizlik mexanizmlaridan foyda ko'rishga intilgan, lekin o'z suvereniteti va harakat erkinligini himoya qilishga intilgan davlatdir deb qayd etadi. Natijada, bahsli muvozanat yuzaga keldi, O'zbekiston ayrim mintaqaviy terrorizmga qarshi tuzilmalarda faol ishtirok etsa-da, ammo milliy manfaatlar yoki xalqaro yo'nalishi xavf ostida deb hisoblaganda boshqalaridan uzoqlashdi.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti hamkorligining muhim elementlaridan biri Toshkentda joylashgan doimiy organ, Mintaqaviy Antiterror Tuzilmasidir. 2004 yilda mazkur tuzilmani Toshkentda ochilishi to'g'risidagi qaror mintaqada O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurashishdagi yetakchi rolini e'tirof etish sifatida baholandi. Mintaqaviy Antiterror Tuzilmasi Shanxay Hamkorlik Tashkiloti a'zolarining razvedka va huquqni muhofaza qilish organlari hamkorligi uchun institutsional markaz vazifasini bajarib, terrorchi va ekstremist tashkilotlar hamda shaxslar to'g'risida umumiy ma'lumotlar bazasini yuritadi, maxsus operatsiyalar va qo'shma mashg'ulotlarni muvofiqlashtiradi, shuningdek, a'zolar o'rtasida huquqiy yordam so'rovlarini amalga oshiradi.

O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi doirasida ham terrorizmga qarshi kurashishda hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda. Zero, terrorizmga qarshi kurashishda global hamkorlikning samaradorligi mintaqaviy hamkorlik orqali ham namoyon bo'ladi. Sohadagi zamonaviy tadqiqotlarga, xususan, olim Abrahms (2008) ga ko'ra, terrorizm o'z ijtimoiy mohiyatiga ko'ra muayyan mintaqani qamrab oladi va mintaqaviy hamkorlik mexanizmlarisiz samarali natijalarga erishib bo'lmaydi. O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurashishdagi xalqaro hamkorligi yuqoridagi universal va maxsus huquqiy asoslardan tashqari hududiy hamkorlikka oid huquq normalariga ham asoslanadi. Masalan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasidagi hamkorlik, asosan, terrorizmga qarshi kurashida amaliy hamkorlikka, terrorizmga qarshi kurashuvchi maxsus davlat idoralari faoliyatini muvofiqlashtirish, terroristik harakatlar sodir etgan shaxslarni ushlab, ekstraditsiya qilish shartlari, terrorizm g'oyalari tarqalishiga qarshi kurashish, terroristik harakatlarning oldini olishda muhim chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining 2016 yil 16 sentyabrdagi qarori bilan Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligiga a'zo davlatlarning 2017-2019 yillarga mo'ljallangan terrorizm va ekstremizmning boshqa zo'ravon ko'rinishlariga qarshi kurashish bo'yicha hamkorligi dasturi tasdiqlandi. Ushbu Dastur 2005 yil 26 avgustdagi Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligiga a'zo davlatlar o'rtasida terrorizm va boshqa zo'ravon ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi Bitim qoidalariga asoslangan chora-tadbirlar majmuasini o'z ichiga oladi. Xususan, Dasturning asosiy vazifalari hamkorlikning huquqiy asoslarini ishlab chiqish, Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligiga a'zo davlatlar o'rtasida milliy qonunchilikni uyg'unlashtirish, axborot-tahlil faoliyatini amalga oshirish, kadrlar sohasida hamkorlikdan iborat. Ushbu dastur doirasida terrorizmga qarshi kurashish uchun zarur huquqiy amaliy hujjatlar qabul qilindi, terrorizmga qarshi kurashishda a'zo davlatlar maxsus vakolatli organlari kengashi tuzildi. Ular terrorizmga qarshi kurashishni operativ muvofiqlashtirish, o'zaro axborot va hujjat almashish va tan olish, muntazam ishchi aloqa o'rnatishni nazarda tutadi.

Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining 2019 yil 11 oktyabridagi qarori bilan Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligiga a'zo davlatlarning 2020-2022 yillarga mo'ljallangan terrorizm va ekstremizmning boshqa zo'ravon ko'rinishlariga qarshi kurashish

bo'yicha hamkorligi dasturi tasdiqlandi. Dasturda ko'zda tutilgan chora-tadbirlar majmuasi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ishtirokchi-davlatlarining 1999 yil 4 iyundagi Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi Shartnomasi, 2007 yil 5 oktyabrdagi Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi ishtirokchi-davlatlarining jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi Shartnomasi, 2005 yil 26 avgustdagi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ishtirokchi-davlatlarining terrorizm va boshqa zo'ravon ekstremizm ko'rinishlariga qarshi kurash bo'yicha hamkorlik Konsepsiyasi, 2007 yil 5 oktyabrdagi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini yanada rivojlantirish Konsepsiyasi, 2017 yil 11 oktyabrdagi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ishtirokchi-davlatlarining jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in quollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurash sohasidagi hamkorlik Konsepsiyasi, 2017 yil 3 noyabrdagi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida terrorizm va boshqa zo'ravon yekstremizm ko'rinishlari, shuningdek, ularni moliyalashtirishga qarshi kurash sohasida axborot almashish to'g'risidagi Bitim, hamda 2016 yil 16 sentabrdagi Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi davlat rahbarlari kengashining xalqaro terrorizmga qarshi yanada birgalikdagi sa'y-harakatlar to'g'risidagi Bayonoti haqidagi qaroriga asoslanadi.

Yuqoridagi dasturlardan tashqari, Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining 2019 yil 11 oktyabridagi qarori bilan Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligiga a'zo davlatlarning 2020-2022 yillarga mo'ljallangan terrorizm va ekstremizmning boshqa zo'ravon ko'rinishlariga qarshi kurashish bo'yicha hamkorligi dasturining 1.1.1-bandiga muvofiq Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligiga a'zo davlatlarning 2023-2025 yillarga mo'ljallangan terrorizm va ekstremizmning boshqa zo'ravon ko'rinishlariga qarshi kurashish bo'yicha hamkorligi dasturi ishlab chiqildi. Dasturning qabul qilinishi Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligiga a'zo davlatlarning terroristik va ekstremistik xarakterdagi zamonaviy tahdidlarga qarshi samarali hamkorligini ta'minlash zarurati bilan bog'liq hisoblanadi. Dasturni ishlab chiqishda xalqaro huquqning umume'tirof yetilgan prinsiplari va normalari, shu jumladan BMTning Global aksilterror strategiyasi, Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligiga a'zo davlatlarning xalqaro majburiyatlari va ularning milliy qonunchiligi, shuningdek, Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligiga a'zo davlatlar va dunyoda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash sohasidagi vaziyatning holati, tendensiyalari va dinamikasi hisobga olingan.

Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi doirasida terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro hamkorlik va uning huquqiy asoslarining xususiyatlari bu ularning amaliy va ishlovchi mexanizmlardan iboratligi, deklarativ normalar soni minimallashtirilganligi, terrorizmga qarshi kurashda, asosan, vakolatli organlarning kuch ishlatish vakolatlarini muvofiqlashtirishga qaratilganligi hamda ekstraditsiya va odil sudlov masalalari ushbu hujjatlarda nazarda tutilmaganligidir. Shu bilan birga, terrorizmga qarshi kurashning global va mintaqaviy xalqaro huquqiy asoslarining o'zaro nisbati, ularning milliy qonunchilik bilan nisbati, qat'iy iyerarxiyasi va ustuvorligini aniq belgilamagan. Ba'zida terrorizmga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni ta'minlashda Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi doirasida erishilgan kelishuvlar, milliy qonunchilik talablari global universal qoidalardan ko'ra muhimroq bo'lishi mumkin. Ya'ni masala yana milliy huquq suverentitetiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shuningdek, huquqiy tizimlar integratsiyasi bilan bog'liq, noaniq natijalarga olib keladigan bir qator globallashtirish tendensiyalarini kuzatadigan bo'lsak, milliy huquq

suvereniteti ustuvorligi xalqaro hamkorlik asoslarini zaiflashtirishi, aniqrog'i, uni amalga oshirishni qiyinlashtirishi mumkin.

Jalinskiy (2006) bu borada huquqiy tizimlarning huquqiy integratsiyasi yoki yaqinlashishi, ba'zan, aksincha, ular o'rtasidagi ziddiyatning kuchayishi o'ta nozik oqibat sifatida milliy jinoyat huquqining sezilarli darajada cheklanishiga sabab bo'lishi mumkinligini keltiradi. Bu muammo, ayniqsa, milliy jinoyat huquqi suvereniteti, bir tomondan, davlatning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyili va ikkinchi tomondan, real siyosiy va huquqiy jarayonlar o'rtasidagi ziddiyatning mavjudligi bilan bog'liq va bu obyektiv ravishda vujudga keladi va subyektiv ravishda ortib boradi.

BMT, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti va Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligidan tashqari, O'zbekiston davlatlararo terrorizmga qarshi tashabbuslarni ilgari surish uchun turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni ham amalga oshirib keladi. Xususan, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti O'zbekistonning ko'p tomonlama terrorizmga qarshi hamkorligida muhim rol o'ynaydi, ayniqsa qonun ustuvorligiga asoslangan va inson huquqlariga rioya qiluvchi yondashuvni targ'ib qilishda. Bundan tashqari, O'zbekiston Islom Hamkorlik Tashkiloti, Interpol va Markaziy Osiyo-AQSH platformasi kabi tashkilotlar va sheriklik aloqalari bilan munosabatda bo'lib, ular O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurashish sa'y-harakatlariga hissa qo'shadi. Ushbu hamkorlik faoliyatlari yuqorida muhokama qilingan global va mintaqaviy doiralarni to'ldiradi, ko'pincha salohiyatni oshirish, zo'ravon ekstremizmning oldini olish va muayyan masalalar, masalan, terrorchilikni moliyalashtirish yoki chegara xavfsizligi bo'yicha transchegaraviy muvofiqlashtirishga e'tibor beradi. 2016 yildan beri O'zbekiston diplomatiyasi barcha mavjud xalqaro forumlardan qo'llab-quvvatlov va hamkorlik izlashga qaratilgan ko'p vektorli yondashuvni amalga oshirib kelmoqda.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining terrorizmning oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf qilish bilan bog'liq faoliyati, birinchidan, terrorizmning har qanday ko'rinishiga zarba berish, ikkinchidan, terrorizmni qo'llab-quvvatlayotgan davlatlarga qarshi jahon hamjamiyati bilan hamkorlikda kurashni davom ettirish, uchinchidan, xalqaro terrorchilarni jazolash mexanizmidan to'liq foydalanish va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlarga ko'maklashish kabi prinsiplar asosida amalga oshirilishini maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bu borada aniq chora-tadbirlar belgilab, javobgarlikning muqarrarligi ta'minlanmasa, xalqaro terrorizmga qarshi kurashda samarali natijalarga erishish qiyin.

Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha xalqaro va mintaqaviy hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. Mintaqaviy tashkilotlar, jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasida hamkorlikni amalga oshirish uchun ushbu tashkilotlarga a'zo davlatlar o'rtasida zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida axborot almashinuvi va harbiy o'quv mashg'ulotlari o'tkazib turish kerak bo'ladi. Bu esa terrorizmni bir davlat hududidan boshqa davlat hududiga siljishining, terrorchilik harakatlari sodir etgan jinoyatchilarning boshqa davlat hududiga o'tib yashirinishining, bir davlat hududidagi terrorchilarning boshqa davlat hududidan turib moliyalashtirilishining, shuningdek, terrorchilarning bir nechta davlatlar bo'ylab harakatlanishining oldi olinishiga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy terroristik tahdidlarning transmilliy xarakteri va murakkabligi, shuningdek mavjud xalqaro hamkorlik mexanizmlaridagi ayrim

kamchiliklar yangi, yanada samarali hamkorlik formatlarini yaratish zarurligini ko'rsatmoqda. Bu borada, biz terrorizmga qarshi kurashishda davlatlararo dasturlar va tashabbuslarni amalga oshirishning o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqib, O'zbekistonda Terrorizmga qarshi kurashishda integratsiyalangan xalqaro hamkorlik platformasi yaratish bevosita terrorizmga qarshi kurash borasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada yengillashtirishga va uyg'unlikda ishlashga xizmat qilishi mumkin deb hisoblaymiz. Chunki, ushbu platformaning asosiy maqsadi mavjud xalqaro tashkilotlar va mexanizmlarning, jumladan BMT, INTERPOL, Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Mintaqaviy Antiterror Tuzilmasi, Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi Antiterror Markazi, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, Moliyaviy choralarni ishlab chiqish guruhi va boshqalarning faoliyatini bir markazlashgan tizimda integratsiya qilish, axborot almashish samaradorligini oshirish va qo'shma amaliyotlarni muvofiqlashtirishdan iborat. Platforma INTERPOL modeli asosida tuzilishi kerak deb hisoblaymiz, biroq uning faoliyat sohasi faqat jinoiy politsiya bilan cheklanmay, balki terrorizmga qarshi kurashishning barcha jihatlarini qamrab oladi.

Shuningdek, taklif etilayotgan platforma quyidagi afzalliklarni o'zida mujassam etadi. Xususan, BMTning Terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha Idorasi va Markaziy Osiyo uchun Mintaqaviy profilaktiv diplomatiya markazi asosida tuzilgan holda, barcha a'zo davlatlarning terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha milliy markazlari bilan doimiy aloqani ta'minlaydi, turli xalqaro tashkilotlar ma'lumotlar bazalarini birlashtiruvchi yagona platforma yaratadi va real vaqt rejimida axborot almashishni ta'minlaydi. Terroristik tahdidlarni prognozlash, baholash va samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun multidissiplinar ekspertlar guruhi shakllanadi. Favqulodda holatlarda 24/7 rejimida ishlaydigan koordinatsiya markazi faoliyatini yo'lga qo'yish imkoniyatini yaratadi. A'zo davlatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlari uchun yagona standartlar asosida tayyorlash tizimi ishlab chiqishda xizmat qiladi.

Bundan tashqari, mavjud mintaqaviy mexanizmlardagi yuqorida qayd etilgan muammolarni hal qilish maqsadida, taklif etilayotgan platforma Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi va Shanxay Hamkorlik Tashkiloti tizimlari bilan to'liq integratsiyalanishi lozim. Bu integratsiya quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi. Suverenitetni hurmat qilish, ya'ni platforma har bir a'zo davlatning milliy qonunchiligi va suverenitetini to'liq hurmat qilishi. Komplementarlik, ya'ni mavjud xalqaro mexanizmlarni almashtirmasdan, ularni to'ldirish va kuchaytirish. Shaffoflik va hisobdorlik, ya'ni barcha faoliyat yo'nalishlari bo'yicha a'zo davlatlarga muntazam hisobot berish. Teng huquqlilik, ya'ni hamkorlikning o'zaro manfaatli va teng huquqli asoslarda amalga oshirilishi.

Albatta, kompyuter tizimi yordamida terrorchilik harakati sodir etish, ya'ni kiberterrorizm hisoblash markazlari, tibbiyot sohasi va harbiy bazalarni boshqarish, bank va boshqa moliyaviy tarmoqlarni izdan chiqarishga mo'ljallangan. Davlat muassasalari va boshqalarga zarba berish, iqtisodiy zarar yetkazish, ba'zi bir katta aeroportlardagi aloqa tarmoqlarini ishdan chiqarish behisob kishilar o'limiga sabab bo'lishi mumkin. Terrorchilarning, hatto, kosmosdagi texnikaviy asboblarni qo'lga kiritib, ulardan ham jinoiy maqsadlarda foydalanish imkoniyatlari borligi ehtimoldan xoli emas. Zamonaviy kiberterrorizm tahdidlari kontekstida taklif etilayotgan platforma quyidagi innovatsion yechimlarni taklif etadi. Kiberxavfsizlik markazi yaratish orqali a'zo davlatlar orasida kiberhujumlar to'g'risida real vaqt rejimida axborot almashish amalga oshiriladi. Sun'iy intellekt monitoringi orqali ijtimoiy tarmoqlar va internet resurslarda terroristik kontentni

avtomatik aniqlash tizimi yo'lga qo'yiladi. Kriptovalyuta nazorati orqali terroristik faoliyatni moliyalashtirishda kriptovalyutalardan foydalanishni kuzatish va oldini olish mexanizmlari joriy etiladi.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasining terrorizmga qarshi kurashishda davlatlararo dasturlar va tashabbuslarni amalga oshirishdagi xalqaro hamkorligi tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakat bu sohada jiddiy yutuqlarga erishgan. Biroq, zamonaviy terroristik tahdidlarning murakkabligi va transmilliy xarakteri yangi, innovatsion hamkorlik mexanizmlarini yaratish zarurligini ko'rsatmoqda. Taklif etilayotgan Terrorizmga qarshi kurashishda integratsiyalangan xalqaro hamkorlik platformasi konsepsiyasi mavjud xalqaro mexanizmlarning faoliyatini optimallashtirish, axborot almashish samaradorligini sezilarli oshirish, zamonaviy texnologiyalarni xalqaro xavfsizlik sohasiga tatbiq etish, O'zbekistonning xalqaro arena davlatlararo terrorizmga qarshi yetakchi rolini mustahkamlash, mintaqaviy va global xavfsizlikka hissa qo'shish kabi afzalliklarni ta'minlaydi.

Ushbu platformaning amalga oshirilishi O'zbekiston uchun nafaqat xavfsizlik, balki siyosiy, iqtisodiy va diplomatik jihatdan ham strategik ahamiyat kasb etadi. Bu tashabbus mamlakatning xalqaro-huquqiy hamkorlikdagi pozitsiyasini mustahkamlashi, innovatsion yondashuvlar yaratishdagi salohiyatini namoyon etishi va global xavfsizlik arxitekturasida faol ishtirokchi sifatidagi nufuzini oshirishi mumkin. Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi terrorizmga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik sohasida BMT, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan keng qamrovli hamkorlik tarmog'ini shakllantirgan. Mamlakat nafaqat mavjud xalqaro mexanizmlarga faol qatnashib qolmay, balki Ma'rifat va diniy bag'rikenglik rezolyutsiyasi kabi yangi tashabbuslarni ilgari surmoqda. Toshkentda Mintaqaviy Antiterror Tuzilmasi va turli xalqaro konferensiyalarning o'tkazilishi mamlakatning mintaqaviy yetakchilik rolini mustahkamlamoqda

References:

1. Abrahms, M. (2008). What terrorists really want: Terrorist motives and counterterrorism strategy. *International Security*, 32(4), 78-105.
2. Akiner, S. (2002). History and politics in Central Asia: Change and continuity. In *Health Care in Central Asia* (pp. 12-25). London: UCL Press.
3. FIDH. (2012). Shanghai Cooperation Organisation: A vehicle for human rights violations. Retrieved from https://www.fidh.org/IMG/pdf/sco_report.pdf
4. Kakenova, Z. (2024). Regional security challenges in the context of Central Asian states' cooperation with the United States: The case of Uzbekistan. *Izvestiya. Seriya: Mezhdunarodnye otnosheniya i regionovedenie*, 56(2), 45-62.
5. Mirziyoyev, S. (2017). Speech at the 72nd session of the UN General Assembly. Retrieved from <https://president.uz/uz/lists/view/1063>
6. Mirziyoyev, S. (2020). Speech at the 75th session of the UN General Assembly. Retrieved from <https://president.uz/uz/lists/view/3851>
7. The CIS Anti-Terrorism Center. (2020). Program of cooperation of the CIS member states in combating terrorism and other violent manifestations of extremism for 2020-2022. Retrieved from <https://www.cisatc.org/1289/9115/135/9126/9127/1333>

8. United Nations. (2006). The United Nations Global Counter-Terrorism Strategy (A/RES/60/288). Retrieved from <https://docs.un.org/en/A/RES/60/288>
9. UNOCT. (2024). Counter-terrorism in Central Asia. Retrieved from <https://www.un.org/counterterrorism/cct/counter-terrorism-in-central-asia>
10. UNOCT. (2024). UNOCT activities in Central Asia. Retrieved from https://www.un.org/counterterrorism/sites/www.un.org.counterterrorism/files/unoct_central_asia_programmes_jan2024_web.pdf
11. Umarkhanova, D. (2020). LEGAL REGULATION OF INTERNATIONAL COOPERATION IN CRIMINAL MATTERS ON THE LEGISLATION OF THE EAST ASIAN COUNTRIES. Review of law sciences, 4(2), 85-90.
12. Zakurlaev, A.K. (2020). Analysis of national legislation on countering terrorism in the Republic of Uzbekistan and its specific features. Retrieved from <http://sudex.uz>
13. Zhalinskiy, A.E. (2006). Protection of national criminal legal sovereignty in the context of modern international processes. Pravo i gosudarstvo, (6), 66-75.

